

Korxonalar va tashkilotlar

(2018 yil yanvar-dekabr)

2018 yilning yanvar-dekabr oyida Viloyatda 1507 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 229 taga ko'pdir.

Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 975 ta (9,4 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 10367 tani tashkil etgan.

Ro'yxatdan o'tganlar
11109 ta

Faoliyat ko'rsatayotganlar
10367 ta

Yangi tashkil etilganlar
1507 ta

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes sub'ektlari soni 8318 ta bo'lib, yil davomida 1354 ta yangi tashkil etildi.

Xorijiy sarmoya ishtirokidagi
109 ta korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda.


O'tgan yilga nisbatan 504 ta korxona va tashkilotlar kam tugatilgan



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnila, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichmabosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda.

Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.


**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxonalar
va tashkilotlar soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



Ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar.

2019 yilning 1 yanvar holatiga 11109 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 26,3 % savdo, 12,0 % sanoat, 9,3 % qurilish, 12,6 % Qishloq va o'rmon xo'jaligi, 5,6 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 5,3 % tashish va saqlash, 1,5 % axborot va aloqa, 1,2 % sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda 26,3 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan
korxona va tashkilotlar soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'pi Guliston shahri (3475 ta), Sirdaryo (1749 ta), Sayhunobod (916 ta) va Bayout (843 ta) tumanlari hissasiga to'gri keladi. Aksincha Shirin shahri (253 ta), Sardoba (410 ta) hamda Oqoltin (449 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalarining yillar kesimida soni, birlikda.






Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxlar.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni **10367** tani tashil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda **975** ta (9,4 %) ga o'sgan.




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiylarini nisbatan 25,9 % savdo, 12,3 % sanoat, 9,4 % qurilish, 12,1 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 5,5 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 5,3 % tashish va saqlash, 1,5 % axborot va aloqa, 1,2 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 26,8 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxlar ulushi, %
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari,)**



Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'pi Guliston shahri (3264 ta), Sirdaryo (1602 ta), Sayhunobod (895 ta), Boyaut (779 ta) va Yangiyer shahri (774 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Shirin shahri (237 ta), Sardoba (391 ta) hamda Xovos (513 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

**Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxona
va tashkilotlar soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar
kesimida soni, birlikda**

01.01.2017 y.

- 8989 ta

01.01.2018 y.

- 9392 ta

01.01.2019 y.


- 10367 ta



Yangi tashkil etilgan yuridik shaxlar.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida 1507 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2017 yilning shu davriga nisbatan 17,9 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar Guliston shahri (416 ta), Sirdaryo (234 ta), Sayhunobod (131 ta) va Yangiyer shahri (125 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Shirin shahri (33 ta), Xovos (75 ta) hamda Sardoba (78 ta) tumanlarida korxona va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (347 ta), sanoat (263 ta), qurilish (217 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (236 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar (12 ta), axborot va aloqa (18 ta) hamda tashish va saqlash (45 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.


**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**

	01.01.2017 y.		01.01.2018 y.		01.01.2019 y.	
	Korxonalar soni	ulushi, %	Korxonalar soni	ulushi, %	Korxonalar soni	ulushi, %
Viloyat bo'yicha jami	1249	100,0	1278	100,0	1507	100,0
Savdo	372	29,8	292	22,8	347	23,0
Sanoat	171	13,7	223	17,4	263	17,5
Qishloq va o'rmon xo'jaligi	223	17,9	248	19,4	236	15,7
Qurilish	89	7,1	141	11,0	217	14,4
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	57	4,6	96	7,5	102	6,8
Tashish va saqlash	178	14,3	78	6,1	45	3,0
Axborot va aloqa	40	3,2	19	1,5	18	1,2
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	5	0,4	12	0,9	12	0,8
Boshqa turlari	114	9,0	169	13,4	267	17,6

**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy
faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar
kesimida soni, birlikda**






📊 TIJORAT KORXONALARNI.

2019 yil 1 yanvar holatiga 8363 ta tijorat shaklidagi korxona va tashkilotlar faoliyat ko'ssatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 2716 ta, oilaviy korxonalar – 89 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 5245 ta va boshqalar 313 tani tashkil etgan.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo`yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarning umumiy soni, birlikda (*fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari*)




📊 Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.

2019 yil 1 yanvar holatiga faoliyat ko'ssatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 109 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 24 taga yoki 22,0 % ga o'sgan. Ushbu korxanalarning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar kesimida soni, birlikda



Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 81 tasi qo'shma korxonalar, 28 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'gri keladi.

Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda.




Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Sirdaryo tumani(48 ta yoki jamidagi ulushi 44,0 %), Guliston shahri (22 ta yoki 20,2 %) va Yangiyer shahri (12 ta yoki 11,0 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Xovos tumani (1 ta yoki 0,9 %), Guliston tumani (1 ta yoki 0,9 %) va Shirin shahri (2 ta yoki 1,8 %) hissalariga tog'ri keladi.

Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalg etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'p sanoatda 76 tani (69,7 %), savdoda 10 tani (9,2 %) hamda Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligidagi esa 8 tani (7,3 %) tashkil qilgan. Eng kamlari esa tashish va saqlashda 4 tani (3,7 %) boshqa tarmoqlarda 4 tani (3,7 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 1 tani (0,9 %) va qurilishda 6 tani (5,5 %) tashkil qilgan. Ko'rinish turibdiki faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari hamda tashish va saqlash faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda




Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.

2018 yilning yanvar-dekabr oyida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning soni 28 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 13 taga ko'paygan.

Bunda, Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 3 ta, Turkiya Respublikasi – 3 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 15 ta, Qozog'iston Respublikasi – 1 ta, va Koreya Respublikasi – 1 ta korxonalar yangi ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2018 yil davomida Afg'oniston Islom Respublikasi, Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining davlatlar kesimidagi ulushi, %



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoat (21 ta), savdo (1 ta), qurilish (2 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (3 ta) va boshqa faoliyat turlari (1 ta) hissasiga to'gri keladi.


**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
soni, o'sish dinamikasi**

	2017 yil yanvar-dekabr		2018 yil yanvar-dekabr	
	Jami	Umumiy soniga nisbatan %	Jami	Umumiy soniga nisbatan %
Sanoat	11	73,3	21	30,5
Savdo	1	6,7	1	3,6
Qurilish	2	13,3	2	7,1
Qishloq va o'rmon xo'jaligi	-	-	3	10,7
Tashish va saqlash	1	6,7	1	3,6



➡ Kichik korxona va mikrofirmalar soni.


2019 yil 1 yanvar holatiga Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 8318 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2018 yil 1 yanvar holatiga qaraganda 11,5 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi, yani 2791 tasi (33,6 %) Guliston shahri, 1347 tasi (16,2 %) Sirdaryo, 724 tasi (8,7 %) Sayhunobod hamda 651 tasi (7,8 %) Yangiyer shahri hissalariga to'g'ri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 8318 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 2679 tasi (32,2 %) – savdo, 1254 tasi (15,1 %) - sanoat, 792 tasi (11,7 %) - qurilish, 1231 tasi (14,8 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 568 tasi (6,8 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 546 tasi (6,6 %) - tashish va saqlash, 150 tasi (1,8 %) - axborot va aloqa sohasi, 83 tasi (1,0 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, shuningdek 835 tasi (10,0 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.


Shundan ko'rrib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



2018 yil yanvar-dekabr oylarida 1354 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 13,9 % ga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Guliston shahri (357 ta), Sirdaryo (215 ta), Sayhunobod (125 ta) va Yangiyer shahrlari (118 ta) hissasiga to'gri keladi. Eng kam Sirin shahri (30 ta), Sardoba (64 ta) hamda Xovos (67 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (347 ta), sanoatda (263 ta), qurilishda (216 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (235 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'lqnini saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (12 ta), axborot va aloqada (18 ta) hamda tashish va saqlashda (45 ta) tashkil etilgan.

Oilaviy korxonalar soni

 Yuridik shaxs sifatida davlat ro`yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2019 yilning 1 yanvar holatiga 94 tani tashkil etib, ulardan 89 tasi yoki 94,7 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan


olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 30,7 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 41,5 % yoki 39 tasi sanoat, 20,2 % yoki 19 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 18,1 % yoki 17 tasi savdo, 11,7 % yoki 11 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,1 % yoki 1 tasi tashish va saqlash, 1,1 % yoki 1 tasi axborot va aloqa hamda 6,4 % yoki 6 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari, eng kami esa Axborot va aloqa, tashish va saqlash kabi faoliyat turlari hissasiga to'gri keladi.

Tugatilgan korxona va tashkilotlar


2018 yilning yanvar-dekabr oylarida jami 512 ta korxonalar va tashkilotlar faoliyatini tugatgan.

Ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan -504 taga tugatish kamaygan.

Albatta xo'jalik yurituvchi subyektlarning bugungi kun talablariga moslashishi va raqobatbardoshligini oshirish borasida yurtimizda talaygina ijobiy o'zgarishlar ko'zga tashlanib, qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Buning natijasida mamlakatimizda tadbirkorlarning bugungi kun bozoriga moslashish darajasi ortib bormoqda.

Misol tariqasida 2016 yilda 719 ta, 2017 yilda 1016 ta korxonalar va tashkilotlar o'z faoliyatini yakunlagan bo'lsa, joriy yilning yanvar-dekabrdagi ushbu ko'rsatkich 512 tani tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 504 taga tugatish kamaygan.

**Faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida
dinamikasi, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Tugatilgan 512 ta korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha olib qaraydigan bo'lsak, 160 tasi (31,3 %) savdo , 78 tasi (15,2 %) sanoat, 44 tasi (8,6 %) qurilish, 75 tasi (14,6 %) qishloq va o'rmon xo'jaligi, 32 tasi (6,3 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 39 tasi (7,6 %) tashish va saqlashda, 19 tasi (3,7 %) axborot va aloqada, 65 tasi (12,7 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinish turibdiki, tugatilgan korxonalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa yashash va ovqatlanish hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri kelgan.

Faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	01.01.2018 yil		01.01.2019 yil		
	Soni (birlikda)	jamiga nisbatan, % da	Soni (birlikda)	Jamiga nisbatan, % da	Farqi, (+,-)
Jami	1016	100,0	512	100,0	-504
<i>shu jumladan:</i>					
qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	111	10,9	75	14,6	-36
sanoat	84	8,3	78	15,2	-6
qurilish	71	7,0	44	8,6	-27
savdo	324	31,9	160	31,3	-164
tashish va saqlash	66	6,5	39	7,6	-27
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	52	5,1	32	6,3	-20
axborot va aloqa	24	2,4	19	3,7	-5
sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	136	13,4	-	-	-136
boshqa turlari	148	14,6	65	12,7	-83

Faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilga nisbatan DINAMIKASI (+,-)



2018 yil yanvar-dekabr oylarida 486 ta kichik tadbirkorlik sub'ektlari tugatilgan. Bu esa o'tgan yilga nisbatan -326 taga kam kichik tadbirkorlik sub'ektlari tugatilgan.

Tugatilgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi 160 tasi (32,9%) savdo, 78 tasi (16,0 %) sanoat, 44 tasi (9,1 %) qurilishda, 74 tasi (15,2 %) qishloq va o'rmon xo'jaligi, 32 tasi (6,6 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 39 tasi (8,0 %) tashish va saqlashda, 18 tasi (3,7 %) axborot va aloqada hamda 41 tasi (8,4 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri kelgan.

Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash natijasida hududlarda ham tugatilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni yildan yilga kamayib bormoqda. Ushbu yo'nalishda asosan Sirdaryo tumanida -103 ta, Guliston shahrida -142 ta, Gulistonda -25 ta hamda Sayhunobod tumanida -23 ta kichik korxona va mikrofirmalar o'tgan yilga nisbatan kam tugatilganligini statistik raqamlarda ko'rishimiz mumkin.

Statistik registrlarni yuritish bo'limi
Tel.:67-225-31-00